

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.11/2025.27.12.San.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

PARDAYEV SHAVKAT NIZOMOVICH

KATTAQO‘RG‘ON TEATRI: SHAKLLANISH VA TARAQQIYOT
BOSQICHLARI

17.00.01 – Teatr san’ati

SAN’ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Содержание автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation

Pardayev Shavkat Nizomovich

Kattaqo‘rg‘on teatri: shakllanish va taraqqiyot bosqichlari..... 3

Пардаев Шавкат Низамович

Каттакурганский театр: этапы становления и развития..... 21

Pardayev Shavkat Nizomovich

Kattakurgan theater: formation and development steps.....41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 45

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.11/2025.27.12.San.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

PARDAYEV SHAVKAT NIZOMOVICH

KATTAQO‘RG‘ON TEATRI: SHAKLLANISH VA TARAQQIYOT
BOSQICHLARI

17.00.01 – Teatr san’ati

SAN’ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/San215 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (dsmi.uz) hamda "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tulyaxodjayeva Muxabbat Turabovna
san'atshunoslik fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ahmetjanova Muqaddas Vahobovna
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

Ismailov Anvar Xamdovich
san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.11/2025.27.12.San.02.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 28-yanvar soat 11⁰⁰dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och dahasi, 127-"A" uy. Tel.: (+99871) 230-28-02; faks: (+99871) 230-28-15; e-mail: uzdsmi@madaniyat.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (34 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och dahasi, 127-"A" uy. Tel.: (+99871) 230-28-58; faks: (+99871) 230-28-15).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 6-yanvar kuni tarqatildi.

(2026-yil 6-yanvardagi 1-raqamli reyestr bayonnomasi).



B.A.Shodiyev
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash raisi,
san'atshunoslik fanlari doktori, dotsent

J.A.Mamatqosimov
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash kotibi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), professor

A.A.Umarov
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, sotsiologiya
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda shiddat bilan kechayotgan informatsion va transformatsion jarayonlar, madaniy-ma'naviy, siyosiy o'zgarishlar barcha xalqlarning ijtimoiy hayotida sezilarli iz qoldirmoqda. Bu ijtimoiy hayotning barcha sohalarida bo'lgani kabi teatr san'ati rivojida ham o'z ta'siriga ega bo'lib bormoqda. Xalqaro teatr maydonida yuzaga kelayotgan dramaturgiya, rejissura, ssenografiya, aktyorlik mahoratiga oid an'analarni, zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish rejissyorlar va aktyorlar uchun dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon san'atshunoslik ilmida alohida bir mamlakat yoki millat teatrining shakllanishi va taraqqiyotiga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar teatrshunoslik fani uchun katta mavqega ega bo'lib, mazkur san'atga bo'lgan qarashlar ham o'zgarishlarga yuz tutmoqda. Teatrning ijtimoiy hayotda tutgan o'rnini, tomoshabin ongiga bo'lgan ta'siri, tarbiyaviy ahamiyati yanada ortmoqda. Natijada, hayotiy voqeliklarning sahnada badiiy ifodalashda axborot-kommunikativ texnologiyalaridan foydalanish orqali yangi badiiy uslublarni o'rganish, tomosha san'atining turli janr va shakllarini zamonaviy texnologiyalar orqali uyg'unlashtirish, spektaklni sahnalashtirish va namoyish qilishda multimedia, kompyuter kabi innovatsion vositalardan foydalanish, ijodiy, tashkiliy, ishlab chiqarish va iqtisodiy aspektlarni yaxlit holda ilmiy o'rganish zarurati yuzaga kelmoqda.

Bugungi kunda O'zbekistonda teatr san'atini yanada rivojlantirish, har bir hududdagi teatrlar faoliyatiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, spektakllarning g'oya, mazmun va badiiy shakl jihatidan boyitish, ularni mavjud an'analarga asosida takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamlilik ishlar amalga oshirilmoqda. "Bugungi kun nafasi, odamlarni o'ylantirayotgan, hayajonga solayotgan, jiddiy ijtimoiy muammolar aks etgan sahna asarlari yaratish teatr ijodkorlari oldida turgan eng muhim vazifalardan hisoblanadi"¹. Shu nuqtai nazardan viloyat teatrlarining shakllanish va taraqqiyot bosqichlari, rejissura va aktyorlik san'ati sohasida to'plagan tajribalari, an'analari, Mustaqillik davrida paydo bo'lgan ijodiy tendensiyalarni o'zlashtirish, repertuar tanlash, mualliflar bilan ishlash jarayonini tadqiq etish ustuvorlik kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rnini va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-son "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir / – Toshkent: "Xalq so'zi", 2017, 4-avgust. – B. 1.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyo miqyosida markazdan chekka hududlarda joylashgan teatrlar faoliyatini o‘rganish XX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. Ushbu yo‘nalishda xorijiy olimlarga tegishli qator ilmiy tadqiqotlar mavjud. A.Heynrix, O.Tarnboll, J.Zaygler tadqiqotlarida ana shunday regional teatrlarning shakllanishi va ijodiy faoliyatlari tadqiq qilingan².

MDH davlatlari teatrshunoslik ilmida XX asrning so‘nggi yillaridan boshlab, hududiy teatrlar faoliyatini o‘rganish tendensiyasi boshlandi. M.Abdullayeva, N.Akayeva, M.Asalxonova, A.Sagitova, Yu.Sulaymonov, M.Tavarovning tadqiqotlarida viloyat teatrlarining o‘ziga xosligi hamda tashkiliy-ijodiy xususiyatlari o‘rganilgan³.

Bu masala o‘zbek teatrshunosligida M.Rahmonov, M.Qodirov, T.Tursunov, T.Bayandiyev, T.Islomov, S.Tursunboyev, I.Muxtarov, M.Tulyaxodjayeva, H.Ikromov, T.Yo‘ldoshev, Sh.Rizayev, O.Rizayev, M.Axmetjanova va boshqa bir qator teatrshunoslarning ilmiy ishlarida turli aspektlarda tadqiq qilingan⁴.

² Heynrix A. Entertainment, Propaganda, Education: Regional Theatre in Germany and Britain Between 1918 and 1945. London: University of Hertfordshire Press, 2007. – 271 p.; Tarnboll O. Bringing Down the House: The Crisis in Britains Regional Theatres. – London: Intellect Ltd, 2009. – 192 p.; Zeigler J. Regional theatre: The revolutionary stage. – New York, 1973. – 283 p.

³ Абдуллаева М. История становления и развития Дагестанского национального театра: на материалах Аварского музыкально драматического театра им. Г.Цадасы: Автореф. дис. кан. иск. – Махачкала, 2007. – 48 с.; Акаева Н. Театральная искусство кумыкского народа: история и проблемы развития 1930-2008 гг: Автореф. дис. кан. иск. – Махачкала, 2012. – 46 с.; Асалханова М. Истоки сценографии Бурятского театра: от обряда до профессиональных спектаклей: Автореф. дис. кан. иск. – Улан-уде, 2005. – 46 с.; Сагитова А. Проблемы развития Башкирского государственного театра драмы имени Мажита Гафури в последние десятилетие XX века: на примере творчества режиссера Р.Ф.Исрафилова: Автореф. дис. кан. иск. – Уфа, 2016. – 44 с.; Сулейманов Ю. Особенности становления и развития Адыгейского театра: от истоков до конца 80-годов XX века: Автореф. дис. кан. иск. – Майкоп, 2003. – 44 с.; Таваров М. Отражение исторических событий в современной таджикской театральной культуры: годы независимости: Автореф. дис. кан. иск. – Душанбе, 2006. – 48 с.

⁴ Rahmonov M. O‘zbek teatri: XVIII asrdan XX asr avvaligacha. – Toshkent: Fan, 1966. – 287 b.; Rahmonov M. Hamza. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 2001. – 327 b.; Rahmonov M., To‘laxodjayeva M., Muxtorov E. O‘zbek milliy akademik drama teatri tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2003. – 268 b.; Qodirov M. Masxaraboz va qiziqchilar san‘ati. – Toshkent: Fan, 1971. – 115 b.; Qodirov M. O‘zbek teatri an‘analari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1976. – 214 b.; Qodirov M. Mehr va sehr. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1980. – 77 b.; Qodirov M. O‘zbek xalq tomosha san‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1981. – 224 b.; Qodirov M. Temuriylar davri tomosha san‘ati. Monografiya. – Toshkent, 2007. – 220 b.; Tursunov T. XX asr o‘zbek teatri tarixi (1900-2007). – Toshkent: Art Press, 2010. – 568 b.; Tursunov T. O‘zbek teatri tarixi. Darslik. Toshkent, 2008. – 535 b.; Bayandiyev T. Qoraqalpoq teatri: San‘at masalalari – teatrshunos nigohida. – Toshkent: O‘zDSI, 2009. – 204 b.; Bayandiyev T., Isломov T. Jahon teatri tarixi. – Toshkent: O‘zDSI, 2008. – 191 b.; Tursunboyev S. Andijon teatri. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1970. – 133 b.; Мухтаров И. Театр и классика. – Ташкент: Изд-во литературы и искусства им. Г.Гуляма, 1988. – 176 с.; Туляходжаева М. Режиссура Узбекского драматического театра. – Ташкент: Издательство имени Гафура Гуляма, 1995. – 86 с.; Туляходжаева М. История театра (узбекский театр периода независимости). – Ташкент: Издательство “Ilm-Ziyo-Zakovat”, 2021. – 303 с.; Ikromov H., Ahmetjanova M. O‘zbek teatrida milliy g‘oya talqini. – Toshkent: O‘zDSI, 2009. – 220 b.; Юлдашев Т. Проблемы современной узбекской драматургии (к вопросу о драматическом конфликте и характерах в драмах 70-х и начала 80-х годов). Автореф. дис. канд. иск. – Ташкент, 1984. – 18 с.; Rizayev Sh. Bahodir Yo‘ldoshev teatri. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi, 2015. – 124 b.; Rizayev Sh. Jadid dramasi. – Toshkent: Sharq, 1997. – 28 b.; Qodirova S. XX asr o‘zbek teatrida komediya san‘ati (shakllanish va taraqqiyot muammolari): San. fan. dok. dis. avtoref. – Toshkent, 2003. – 45 b.; Rizayev O. Nabi Rahimov. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1997. – 104 b.; Ahmetjanova M. O‘zbekiston yoshlar teatrlari mustaqillik davrida (yangi davr va uning sahnaviy yechimi): San. fan. nom. dis. – Toshkent, 2009. – 182 b.

Dissertatsiyani yozish jarayonida teatrshunoslar M.Isokova, F.Abduvohidov, B.Yakubov, A.Ismoilov, P.Mamutov, Ch.Rahimovanning bevosita viloyat teatrlariga bag'ishlangan ilmiy ishlari⁵ hamda Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on shahri va SGASA arxivlarining manbalari o'rganib chiqildi⁶. Shuningdek, Kattaqo'rg'on tarixi va Kattaqo'rg'on drama teatriga bag'ishlangan Sh.Abduhakimov, I.Bekmurodov, B.Islomovning kitoblaridan, davriy nashrlarda chop etilgan M.Behbudiy A.Majidiy, Yo.Mirzo, F.Jo'rayev, T.Islomov, N.Hojiyev, S.Sirojiddinov, S.Qobilov, B.G'ulomov, Ya.Xudoyqulov, A.Hoshimov, E.O'rinov, M.Xo'jamurodovning maqolalaridan foydalanildi⁷.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Yangi O'zbekistonda milliy madaniyatni rivojlantirish strategiyasi: an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy talablar uyg'unligida madaniyat va san'at sohasi mutaxassislarini tayyorlashning nazariy-konseptual asoslari" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Kattaqo'rg'on teatrining tarixi, ma'muriy-ijodiy shakllanish jarayonlari, repertuar siyosati, rejissura, ssenografiy va aktyorlik ijrosidagi tendensiyalar, milliy va xorijiy dramaturgiyadagi janr va mavzu xilma-xilligi masalalarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Kattaqo'rg'onda Yevropa rusumidagi teatrining tashkil etilishi va shakllanishini o'rganish;

Kattaqo'rg'on teatri repertuarida mavzu, janr va g'oyaviylik masalalarini aniqlash;

⁵ Isokova M. Xorazm etnomadaniyati va Yevropa rusumidagi teatrning rivojlanishi: San. fan. fal. dok. dis. avtoref. – Toshkent, 2024. – 48 b.; Abduvohidov F. Surxondaryo viloyati musiqali drama teatrining shakllanish va taraqqiyot bosqichlari: San. fan. fal. dok. dis. avtoref. – Toshkent, 2021. – 45 bet.; Yakubov B. Zamonaviy o'zbek dramaturgiyasi va uning sahnaviy talqini (1991–2016-yy.): San. fan. fal. dok. dis. – Toshkent, 2019. – 172 b.; Ismoilov A. zamonaviy o'zbek drama teatri rejissurasi taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari (1991–2016-yy.): San. fan. fal. dok. dis. – Toshkent, 2019. – 155 b.; Mamutov P. Zamonaviy Qoraqalpog' teatri: an'ana va yangi tendensiyalar: San. fan. fal. dok. dis. avtoref. – Toshkent, 2024. – 45 b.; Rahimova Ch. Farg'ona viloyati teatrlarida milliy dramaturgiyaning sahna talqinlari (1991 – 2021-yy.): San. fan. fal. dok. dis. avtoref. – Toshkent., 2025. – 42 b.

⁶ Бадрий А. 23. XII. 1921. Москва ЦГАСА, фонд – 1012.; Samarqand viloyat davlat arxivi, fond – 152.; Samarqand viloyat davlat arxivi, fond – 104.; Samarqand viloyat davlat arxivi, fond – 142.; Samarqand viloyat davlat arxivi, fond – 230.; Kattaqo'rg'on shahar davlat arxivi, fond – 539.

⁷ Abduhakimov Sh. Kattaqo'rg'on tarixidan lavhalar. – Toshkent: Tamaddun, 2016. 114 b.; Бекмуродов И. Справочник Каттакургана. – Ташкент, 1968. – с. 224.; Bekmurodov I. Kattaqo'rg'onning qisqacha tarixi. – Samarqand: Zarafshon, 1993. – 74 b.; Islomov B. Izlanish. – Samarqand: Morozov nomidagi bosmaxona, 1981. – 61 b.; Behbudiy M. Teatr nador? / "Oyina" gazetasi, 1914-yil, 29-mart. – B. 3.; Majidiy A. Kattaqo'rg'onda sahna ishlari / "Turkiston" gazetasi, 1923-yil, 10-iyun. – B. 3.; Mirzo Yo. Inson madhiyasi / "O'zbekiston madaniyati" gazetasi, 1971-yil, 29-oktyabr. – B. 3.; Jo'rayev F. Uyg'onish / "Toshkent haqiqati" gazetasi, 1964-yil, 28-iyul. – B. 3.; Islomov T. Ijodiy hisobot / "O'zbekiston madaniyati" gazetasi, 1964-yil, 12-avgust. – B. 3.; Hojiyev N. Orzu qanotida / "Lenin yo'li" gazetasi, 1965-yil, 8-avgust. – B. 4.; Sirojiddinov S. Sahna otaxoni / "Lenin yo'li" gazetasi, 1967-yil, 28-noyabr. – B. 4.; Qobilov S. Uyg'onish – sahnada / "Sovet O'zbekistoni" gazetasi, 1964-yil, 28-iyul. – B. 4.; G'ulomov B. Gunohsiz gunohkorlar / "O'zbekiston madaniyati" gazetasi, 1964-yil, 5-avgust. – B. 3.; Xudoyqulov Ya. E'tiqod kuchi / "O'zbekiston madaniyati" gazetasi, 1977-yil, 13-dekabr. – B. 3.; Hoshimov A. Sahnada betakror siymolar yaratayotgan aktyor / "Zarafshon" gazetasi, 2015-yil, 15-yanvar. – B. 3.; O'rinov E. Ijodkor baxti // "Teatr" jurnali, 2017-yil. 5-son. – B. 24.; Xo'jamurodova M. To'yga munosib to'yona // "Teatr" jurnali, 2022-yil, 1-son. – B. 28.

Kattaqo'rg'on teatrida Ikkinchi jahon urushidan keyin jamoaning tiklanish davriga nisbatan munosabatlarini hamda shartlilik va ssenografiyaning namoyon bo'lishi, ularning o'ziga xosliklarini ochib berish;

Kattaqo'rg'on teatrining mustaqillik yillaridagi faoliyatini ochib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Kattaqo'rg'on teatrining tashkiliy-ijodiy faoliyati belgilandi.

Tadqiqotning predmetini teatrning shakllanish va rivojlanish bosqichlarida muhim ahamiyat kasb etgan spektakllar tahlili tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda zamonaviy san'atshunoslik ilmining tipologik, tarixiy-xronologik, tasnifiy, tahliliy, faktologik, solishtirma-qiyosiy, kompleks yondashuv kabi usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Kattaqo'rg'on teatrining tashkil etilishi g'oyaviy-badiiy jihatdan bir-biridan farq qiluvchi uchta musulmon truppasi: mahalliy yoshlar guruhi, Sh.Karimxo'ja boshchiligidagi radikal diniy-ma'rifiy musulmon jamoasi hamda G'.Kamol boshchiligidagi tatar "Sayyor" truppalari negizida amalga oshirilganligi dalillangan;

teatrning Ikkinchi jahon urushidan keyingi tiklanish davriga nisbatan munosabatni optimistik (umidbaxsh) g'oyalarga asoslangan "G'unchalar" (Z.Fatxullin), "Oltin ko'l" (Uyg'un), "Imon" (Izzat Sulton) kabi spektakllarning sahnalashtirilishi natijasida Kattaqo'rg'on teatriga romantik ijroning kirib kelganligi dalillangan;

mustaqillik davrida global muammolardan bo'lgan transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurash mavzularida asarlar sahnalashtirilgani, ularda jahon teatrlarida yuzaga kelgan shartlilik va ramziylik asosiga qurilgan ssenografiya, rejissyorlik talqini va ijro usullarining namoyon bo'lgani, sahnada ilg'or zamondoshlar obrazlari aks etgan spektakllarning salmog'i oshgani isbotlangan;

Kattaqo'rg'on teatri rejissurasida ustuvor bo'lgan realistik talqin ssenografiyadagi etnoregional naqshinkor bezaklar va arxeologik yodgorliklardagi devoriy rasmlar, ornamentlar hamda naqsh uslublariga xos elementlarga ko'ra ochib berilganligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Kattaqo'rg'on teatri tarixi va shakllanish bosqichlarini o'rganish natijasida teatr repertuari, rejissyorlar va aktyorlar tarkibi xronologiyasi yaratilgan;

teatr faoliyatini o'rganishdan olingan xulosalarga tayangan holda respublika teatrlarida faoliyat yuritayotgan yosh san'atkorlarga tarixiy tajriba va an'analarni, zamonaviy jarayonlarni o'rganib, ular asosida o'z ijodiy yo'nalishlarini topishda muhim manba yaratilgan;

Kattaqo'rg'on teatrining taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etuvchi asosiy masalalar bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

Kattaqo'rg'on teatrining: shakllanish va taraqqiyot bosqichlari yuzasidan "Nurli yo'l" monografiyasi nashr etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tahlil natijasida olingan xulosalarning jahon san'atshunosligi, teatrshunosligi va madaniyatshunosligining sinalgan metodlari va nazariy yondashuvlari qo'llanilganligi, asosiy natijalar xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida

aprobatsiyadan o'tganligi, arxiv hujjatlaridan foydalanilganligi va ishlab chiqilgan takliflar amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati nazariy xulosalar teatrshunoslik ilmi doirasidagi mavjud ma'lumotlarni kengaytirishi va to'ldirishi, aniqlangan dramaturgiya, aktyorlik, rejissyorlik san'atidagi tendensiyalar, an'analar va novatorlik izlanishlari teatr tarixi, dramaturgiya tarixi fanlari bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalar uchun qo'shimcha manba bo'lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati soha uchun professional kadrlarni tayyorlash, teatr rejissyorlari va aktyorlariga to'laqonli spektakllar sahnalashtirish, qahramon obrazini mukammallashtirish, xarakterli obrazlar yaratish, rejissyorlik topilmalari va ijodiy izlanishlar chegarasini kengaytirish, yangi yondashuvlarni shakllantirish imkonini berishi bilan ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kattaqo'rg'on teatrining shakllanish va taraqqiyot bosqichlarini o'rganish jarayonida olingan ilmiy natijalar asosida:

Kattaqo'rg'on teatrining tashkil etilishi g'oyaviy-badiiy jihatdan bir-biridan farq qiluvchi uchta musulmon truppasi: mahalliy yoshlar guruhi, Sh.Karimxo'ja boshchiligidagi radikal diniy-ma'rifiy musulmon jamoasi hamda G'.Kamol boshchiligidagi tatar "Sayyor" truppalari negizida amalga oshirilganligi dalillangan xulosa va takliflardan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "Mahalla" telekanalining "Minbar", "Mahalla tongi", "O'shal damlar" kabi ko'rsatuvlarida foydalanilgan (O'zMTRK "Mahalla" teleradiokanalining 2025-yil 28-apreldagi 02-16-123-son ma'lumotnomasi). Natijada, tomoshabinlar Kattaqo'rg'on teatrining ijtimoiy-madaniy va badiiy ahamiyati hamda bugungi jarayonlari haqida muhim ma'lumotlarga ega bo'lishgan;

teatrning Ikkinchi jahon urushidan keyingi tiklanish davriga nisbatan munosabatni optimistik (umidbaxsh) g'oyalarga asoslangan "G'unchalar" (Z.Fatxullin), "Oltin ko'l" (Uyg'un), "Imon" (Izzat Sulton) kabi spektakllarning sahnalashtirilishi natijasida Kattaqo'rg'on teatriga romantik ijroning kirib kelganligi dalillangan xulosalaridan O'zbekiston teatrlari repertuarini shakllantirishda, dolzarb mavzu va janrlardagi tarixiy va zamonaviy spektakllarni sahnalashtirishda, teatr festivallari, ko'rik-tanlovlar, ilmiy-ijodiy konferensiyalar va anjumanlar o'tkazishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Teatr arboblari uyushmasining 2025-yil 28-apreldagi 01-02-33-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'zbek teatr san'atidagi tashkiliy-ijodiy jarayonlarni o'rganish, ko'rik-festivallar tashkil etishda Kattaqo'rg'on teatrining ahamiyati ochib berilgan;

mustaqillik davrida global muammolardan bo'lgan transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurash mavzularida asarlar sahnalashtirilgani, ularda jahon teatrlarida yuzaga kelgan shartlilik va ramziylik asosiga qurilgan ssenografiya, rejissyorlik talqini va ijro usullarining namoyon bo'lgani, sahnada ilg'or zamondoshlar obrazlari aks etgan spektakllarning salmog'i oshgani isbotlangan xulosalaridan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "Mahalla" telekanalining "Minbar", "Mahalla tongi", "O'shal damlar" kabi ko'rsatuvlarida foydalanilgan (O'zMTRK "Mahalla" teleradiokanalining 2025-yil 28-apreldagi 02-16-123-son ma'lumotnomasi). Natijada, Kattaqo'rg'on teatri ijodiy faoliyatiga oid turkum manbalar yaratilgan;

Kattaqo'rg'on teatri rejissurasida ustuvor bo'lgan realistik talqin ssenografiyadagi etnoregional naqshinkor bezaklar va arxeologik yodgorliklardagi devoriy rasmlar, ornamentlar hamda naqsh uslublarga xos elementlarga ko'ra ochib berilganligi asoslangan xulosalardan teatr spektakllarini sahnalashtirish jarayonida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2025-yil 25-sentyabrdagi 02-11-17-3197-son ma'lumotnomasi). Natijada, tomoshabinlar Kattaqo'rg'on teatridagi zamonaviy jarayonlar haqida muhim ma'lumotlarga ega bo'lishgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhakamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, shundan 4 tasi respublika, 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 123 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti, uslublari, yondashuvlari aniqlangan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi, manbalarining o'rganilganlik darajasi, ishning nazariy va amaliy ahamiyati bayon etilib, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, joriy qilinishi, aprobatsiyasi va ish tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“XX asrning 20-yillarida Samarqanddagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat va Kattaqo'rg'on teatrining tashkil etilishi”** deb nomlangan birinchi bobi hududning etnik madaniyati, an'anaviy o'zbek teatri tarixi; Markaziy Osiyoning chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi natijasida Turkistonga yangi rusumdagi teatr san'atining kirib kelishi va jadidlik harakatlari tufayli qator teatr truppalarning paydo bo'lishiga to'xtalib o'tilgan. Ana shunday teatrlar qatorida Kattaqo'rg'on teatrining ham o'rni borligi qayd etilgan. Shuni ta'kidlash maqsadida arxiv manbalari ichidan topilgan Kattaqo'rg'on tuman Maorif sho'basining 1920-yil 20-dekabrdagi №525/5 qarori asosida TKSM (Turkiston Kommunistik Yoshlar Ittifoqi) truppasining tashkil etilishiga, u 1926-yilda “Haqiqat” deya qayta nomlanib, sobiq RayONO (Tuman Maorif sho'basi) qoshidagi davlat teatriga aylantirilishiga, shu yillarda teatrdagi faoliyat yuritgan rejissyorlar va aktyorlarga, batafsil to'xtab o'tilgan.

Shuningdek, NEP (Yangi Iqtisodiy Siyosat) va Ikkinchi jahon urushi davrlarida teatr xodimlarining front ortida olib borgan sermashaqqat ijodiy faoliyatlari yoritilgan. Teatrning tashkil etilganidan toki 1945-yilgacha bo'lgan repertuari tiklangan. Spektakllar mazmun va mohiyati jihatidan janr va yo'nalishlarga ajratilib tahlil etilgan.

Bobning **“Tadqiqotning tarixiy-nazariy asoslari”** nomli birinchi paragrafida qadim zamonlarda paydo bo'lib, olimlarimiz tomonidan “An'anaviy teatr” deb

nomlangan qiziqchilik, masxarabozlik, qo'g'irchoqbozlik, baxshichilik, qo'shiqchilik, raqs kabi ilk teatr tomoshalariga to'xtalangan.

Teatrshunos olimu Muhabbat To'laxo'djayeva "Istoriya teatra" kitobida shunday yozadi: "Yuqori darajada taraqqiy etgan musiqiy, xoreografik madaniyat, qo'g'irchoq teatri, masxarabozlar teatri va qiziqchilar XX asrning birinchi o'n yilligida Yevropa rusumidagi sahna san'atining paydo bo'lishi va rivojlanishiga asos soldi (tarjimon – Sh.P.)"⁸.

Professor Muhsin Qodirov ta'biricha an'anaviy teatrda "...syujet chizig'i, fabulasi, ya'ni strukturasigina oldindan ma'lum bo'lib, ijrochilar spektaklda uni dialog bilan, o'z hissiyotlari, qiyofalari, harakatlari bilan to'ldirib gavdalandiradilar"⁹.

Odatda bozor yoki aholi to'planadigan ochiq maydonlarda namoyish etilgan masxarabozlik va qiziqchilik tomoshalarini satira va yumorga ixtisoslashgan. Bunga tabiiy shart-sharoit, aholi o'rtasidagi ijtimoiy tabaqalashuv hamda barcha tabaqa vakillarida o'yin-kulguga moyilligi sabab bo'lgan.

Bu sinflarning ayrimlari (hukmron tabaqa vakillari) qiziqchi, masxaraboz, qo'g'irchoqbozlar san'atiga dam olish, maishatbozlik manbai sifatida qarasalar, boshqalari (dehqon, chorvador va hunarmandlar) dam olish va zavqlanish bilan bir qatorda o'zlarining sinfiy raqiblaridan o'ch olish vositasi sifatida ham qarashgan.

Baxshichilik san'ati esa ko'chmanchilarning quvvai hofizasi tufayli shakllanib, asosan qahramonlik dostonlarini qamrab olgan. Baxshilar ijodida jamoaviylik ko'zga tashlanmaydi. Chunki, besh-o'n kishidan iborat guruhning bir ovuldan o'ttiz-qirq chaqirim naridagi ikkinchi ovulga borib, kam sonli tomoshabinlarga san'atlarini namoyish etishlari moddiy tomonlama o'zini qoplamaydi. Shuning uchun baxshilar yakka-yakka yurishgan. Biroq, o'rni kelganda, jami personajlar nomidan kuylashgan. Shu bois ularda bir vaqtda bir necha personajlarni gavdalandirish qobiliyati rivojlangan.

O'zbekistondagi qadimgi tomosha turlari haqida gapirilayotib, raqs san'atiga ham to'xtalangan. Xoreografiya va raqs san'atining yetuk bilimdoni L.Avdeyeva "Raqsning shakllarini ifodalashga urinishlarini insoniyat 40 ming yil muqaddam boshlagan"¹⁰, deb yozadi.

Birinchi bobning **"Kattaqo'rg'on teatrining tashkil etilishi va ilk qadamlari (1921-1945-yillar)"**, deb nomlangan ikkinchi paragrafida hududda o'tkazilgan arxeologik ishlar yoritilgan. Chunonchi, Biyanayman qishlog'idan topilgan yuzasiga turli marosim suratlari ishlangan loy tobutlar, tilla aralash mis bezakli yog'och sandiqqa chizilgan marosim va urf-odatlariga bag'ishlangan rasmlar, qadah shaklidagi chiroqlar, sopol idishlar, keli, tosh bolg'acha va turli ma'danlardan ishlangan buyumlar Kattaqo'rg'on hududining boy madaniyatidan darak beradi. Bular tarixshunos I.Bekmurodovning "Kattaqo'rg'onning qisqacha tarixi" kitobida keng yoritilgan.

⁸ Туляходжаева М. История театра. – Т.: Издательство "Ilm-Ziyo-Zakovat", 2021. – С. 6.

⁹ Qodirov M. O'zbek teatri an'analari. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1976. – B. 19.

¹⁰ Avdeyeva L. O'zbek milliy raqsi tarixidan. (Qadimiy davrlardan 2000-yilga qadar). – T.: O'zbekraqs birlashmasi, 2001. – B. 8.

Manbalarga qaraganda, “....shaharga 1095-hijriy, 1684-milodiy yilida aka-uka So‘fi Ollohyor, Farhod Otaliq, Ollo Nazarbiylar asos solishgan”. 1867-yilgacha Kattaqo‘rg‘onning har bir guzarida maktab bo‘lgan”¹¹.

Shu sababli Kattaqo‘rg‘on azaldan o‘z davrining ilg‘or shaharlaridan biri hisoblangan. Bu shahardan yirik diniy allomalar, shoirlar, baxshilar va boshqa mashhur ijodkorlar yetishib chiqqan.

Kattaqo‘rg‘onda masxarabozlik va qiziqchilik azaldan rivojlangan. Muhsin Qodirovning “O‘zbek teatri an‘analari” kitobida keltirilishicha bunday tomoshalar Qashqadaryo hamda Zarafshon daryosining yuqori va qo‘yi (Kattaqo‘rg‘on hududi joylashgan) qismlarida keng tarqalgan.

1868-yilda Markaziy Osiyoni chor Rossiyasi bosib olgach, Turkiston xalqlari va chor Rossiyasi o‘rtasida o‘zaro munosabatlar shakllanib, madaniyatlar almashinuvi keng tus oladi. Bu haqda Toshpo‘lat Tursunov o‘zining “O‘zbek teatri tarixi” kitobida batafsil yozgan.

Kattaqo‘rg‘on teatrining paydo bo‘lishiga XX asr boshlarida O‘zbekistonda boshlangan jadidlik harakatining ham salmoqli hissasi qo‘shilgan. Jadidlar xalqqa ilm-ma‘rifat tarqatish borasida birinchi navbatda teatr san‘atining beqiyos mavqeiga e‘tibor berdilar, tashkilotchiliklari, ijodiy jarayonda bevosita rejissyor yoki aktyor sifatida ishtirok etishlari, yozgan pyesalari, sohaga bag‘ishlangan dolzarb maqolalari bilan yangicha teatr san‘atining shakllanishiga ulkan hissa qo‘shdilar. Bu haqda san‘atshunos olim Shuhrat Rizayev o‘ziing “Zarojdenie i formirovanie djadidskoy dramaturgii” asarida batafsil to‘xtab o‘tgan.

Kattaqo‘rg‘on tuman Maorif sho‘basining 1920-yil 20-dekabr kuni chiqarilgan №521/5 qaroriga muvofiq Kommunistik yoshlar ittifoqi (KSM) truppasi asosida Turkiston Kommunistik Yoshlar Ittifoqi (KSMT) teatri tashkil etilib, 1921-yilning 15-yanvarida eski shahardagi “Oktyabr” klubida Ziyos Said va Mo‘min Muhammadjonovning “Qonli kun” dramasi bilan ochiladi. Mana shu sana Kattaqo‘rg‘on teatrining tashkil etilgan kun sifatida tarixga kirgan.

NEP (Yangicha iqtisodiy siyosat) davrida O‘zbekistondagi ko‘pgina teatrlar iqtisodiy qiyinchiliklar tufayli o‘z faoliyatlarini tugatishgan. Ammo, Kattaqo‘rg‘on teatri Maorif sho‘basi, shahar Kasaba uyushmasi hamda “Qo‘shchi soyuzi” ixtiyoriga olingan va o‘z mavqeini saqlab qolgan.

1926-yilda teatrga “Haqiqat” deb nom beriladi.

Kattaqo‘rg‘on teatri 1921-yildan 1945-yilgacha jadid dramaturglari, keyinroq o‘zbek klassik dramaturgiyasi namunalarini, shuningdek, qardosh xalqlar asarlarini sahnalashtirib, tomoshabinlarga namoyish etib kelgan.

Ilmiy ishning **“Kattaqo‘rg‘on teatrining 1945-1991-yillarda sahnalashtirilgan spektakllarida g‘oyaviylik masalalari”** deb nomlangan ikkinchi bobi teatrning 45 yillik ijodiy faoliyatini qamrab olgan. Mazkur bobda Ikkinchi jahon urushidan keyingi iqtisodiy qiyinchiliklarga, “Haqiqat” nomidagi Kattaqo‘rg‘on teatrining 1945-yilda Kolxoz-sovxozi teatriga aylantirilishiga, insoniylik burchi asoslariga qurilgan asarlariga, shuningdek, o‘tgan asrning 70-yillari oxirida teatrga kirib kelgan shartlilik va ssenografiyaga to‘xtalangan.

¹¹ Bekmurodov I. Kattaqo‘rg‘onning qisqacha tarixi. – S.: “Zarafshon” nashriyoti, 1993. – B. 9.

Bobning **“Ikkinchi jahon urushidan keyingi tiklanish davri repertuarida aktyorlarning fuqarolik pozitsiyasi”** nomli paragrafi urushdan keyingi qiyinchiliklar haqida hikoya qiladi. Jamoa dastavval ayollarning paranji tashlashlari va revolyutsiyadan keyingi yangi jamiyatda o‘z o‘rinlarini topishlariga bag‘ishlangan **“Gulsara”**, **“Nurxon”**, **“Oftobxon”** (K.Yashin); sevgi mavzusidagi **“Tohir va Zuhra”** (S.Abdulla), **“Muhabbat guli”**, **“Oila nomusi”** (H.Muxtorov), **“Zumrad”** (muallifi noma’lum); hamda xalqimizning Oktyabr revolyutsiyasidan oldingi hayotini aks ettiruvchi **“Maysaraning ishi”**, **“Boy ila xizmatchi”** (Hamza) kabi asarlarni sahnalashtirib, repertuarni qisman shakllantirsa-da, bu spektakllar mavzu va g‘oyaviyligi jihatidan baribir ham tomoshabinni qoniqtira olmasdi.

Chunki, xalqimiz Ikkinchi jahon urushidan keyingi tiklanish yillariga nisbatan aniq munosabatda edi. Ular fashistlarni qoralashgan, g‘olib Vatanni, tinchlikni, obod turmush tarzini tarannum etuvchi, tomoshabinlarda urushdan keyingi tiklanish davri kayfiyatiga mos, inson ruhiyatiga ko‘tarinkilik bag‘ishlaydigan **“Hoji afandi uylanarmish”** (M.S.Urdubodi), **“Oltin ko‘l”** (Uyg‘un), **“Chin muhabbat”** (Odil Yoqubov), **“G‘unchalar”** (Zinnat Fatxullin) asarlarini sahnalashtirish orqali o‘zlarining **“Fuqarolik pozitsiya”**larini ifodalashgan.

Bular ichida, ayniqsa, Zinnat Fatxullinning vatanparvarlik g‘oyalariga yo‘g‘rilgan **“G‘unchalar”** spektakli e‘tibori qozondi. Pyesa o‘z mohiyati bilan Ikkinchi jahon urushidan keyingi mashaqqatli davr uchun ham dolzarb edi.

Spektaklda asosiy urg‘u g‘unchalar – yetim bolalarning birgalikda o‘z maqsadlariga intilishlari va xotin-qizlarni ish bilan ta‘minlash muammosiga qaratilgan.

Mazkur spektakldan boshlab aktyorlar ijrosida romantizmga xos jo‘shqinlik va pafos kuchaya boshlaydi. Chunki bunday hayotbaxsh talqin o‘z turmush-tarzini, mamlakati xalq xo‘jaligini qaytadan barpo etishga otlangan xalqqa mos kelayotgandi.

1953-yilda O‘zbekiston respublikasi Madaniyat vazirligining 138-qarori bilan Kattaqo‘rg‘on Kolxoz-sovxozi teatri Kattaqo‘rg‘on o‘zbek musiqali drama teatriga aylantirildi. Natijada teatr repertuaridan musiqali spektakllar joy ola boshladi. Shu o‘rinda Uyg‘unning jamoaviy mehnat mavzusiga bag‘ishlangan **“Oltin ko‘l”** musiqali komediyasini e‘tirof etish lozim.

1960-yildan teatr Abdulhamid Majidiy nomidagi Kattaqo‘rg‘on shahar drama teatri, deya atala boshlandi.

Aktyorlarning tiklanish davriga nisbatan fuqarolik pozitsiyalari haqida gapirganda, Izzat Sultonning **“Imon”** pyesasiga alohida to‘xtalish lozim. Pyesa ma‘naviy halollikni, ma‘naviy poklikni imon darajasiga ko‘targan o‘zbek ziyolisi haqidadir. Asar oddiy o‘zbek ziyolisining ta‘magirlik, xudbinlik, haromxo‘rlik kabi salbiy illatlarga qarshi kurashi asosiga qurilgan.

Bobning **“Rejissura va ssenografiyaga oid shartlilikning Kattaqo‘rg‘on teatri spektakllaridagi ifodasi”** nomli ikkinchi paragrafi Kattaqo‘rg‘on teatriga o‘tgan asrning yetmishinchi-saksoninchi yillarida kirib kelgan ssenografiya va shartlilikka bag‘ishlangan.

Sahnada shartlilikning paydo bo‘lishi avvalo tomoshabin ehtiyojidan kelib chiqsada, san‘atkorlarning izlanishlari ham bu borada kam rol o‘ynamagan. Chunki, anchadan buyon davom etayotgan romantik va pafosli ijro tomoshabinning me‘dasiga

tega borgach, oddiy, tushunarli, samimiy, qolaversa, spektakl hayotning o'zi emas, uning in'ikosi ekanligini anglatib turadigan talqinga ehtiyoj sezila boshlagan. Shu bois endi tomoshabinga voqealarning qaerda kechayotganini anglatib turadigan ko'pdan ko'p, xilma-xil chizgilar, manzaralar, maketlar qiziq emasdi. Aksincha, "spektakldan ko'zlangan maqsad nima?", degan fikr zarurroq edi. Oqibatda teatrga shu maqsadni amalga oshiradigan dekoratsiya kirib keldi. Buni ssenografiya deb atashdi. Ssenografiya – sahna tili, demakdir. Demak, endigi dekoratsiyalar orqali sahnadagi voqealar mohiyati o'qila boshlandi.

Masalan, hayajonli voqealarga yo'g'rilgan spektakl finalida sahna yorishib, quyosh chiqqudek bo'lsa, oxiri baxayr bo'lishi, aksincha, momaqaldiraq guldirab, shamol ko'tarilsa, qandaydir olamshumul o'zgarishlar kutilishi ayon bo'ladi. Yoki voqealarning yalang'och sahnada g'ira-shira yonib turgan bir gulxan atrofida kechishi spektaklning mehr-muhabbat mavzusidagi asar ekanligidan, binobarin, yechimda mehr-muhabbat g'alaba qozonishidan darak beradi.

Ba'zida ushbu jarayonga g'arbdan kelgan tendensiya sifatida qarashadi. Ammo, san'atshunoslar bunday ijro qadimgi o'zbek an'anaviy teatrida bo'lganligini, ya'ni, mazkur "yangilik" aslida yaxshigina unutilgan "eskilik" ekanini e'tirof etishgan. Bevosita o'zbek an'anaviy teatri tarixi bilan shug'ullangan Muhsin Qodirov bu haqda shunday yozadi. "An'anaviy teatrimizning muhim prinsiplaridan biri voqea o'rni va paytini shartli ko'rsatilishidir. Ma'lumki, masaxaraboz va qiziqchilarning spektakllari tomoshabinlar davrasida o'ynalganki, bu maxsus dekoratsiyalardan foydalanishga imkon ham huquq ham bermagan. Tomoshabinlar voqealarning qaysi payt va qaerda bo'layotganini ijrochilarning dialogi va ayrim shartli harakatlaridan bilib olganlar.

Aktyorlarimiz diametri 4-10 metr keladigan aylana "sahna"da o'n chaqirimlab yo'l bosganlar, bir qishloqdan ikkinchi qishloqqa o'tganlar, xayolan uy qurganlar, daryo, ariq hosil qilganlar va hokazo. Bunga aktyorlarning lozim bo'lgan ishonarli hatti-harakatlari orqali erishilgan. Saraton, sovuq, bahor, peshin, oqshom, qorong'ilik, yorug'lik tasavvuri ham shunday hosil qilingan"¹².

Kattaqo'rg'on teatridagi shartlilik va ssenografiya asosida sahnalashtirgan ilk spektakl taklif etilgan rejissyor Bahodir Yo'ldoshev va rassom Georgiy Brimga tegishli. Ular 1977-yilda Komil Yashinning "Tor-mor" va Said Ahmadning "Kelinlar qo'zg'oloni" asarlarini sahnalashtirib Kattaqo'rg'on teatrida yangicha talqindagi dastlabki qadamni qo'yishgan.

Kattaqo'rg'onlik rejissyor Ne'mat Shomurodov va rassom Nelya Karaevalar 1982-yilda A.N.Ostrovskiyning "Momaqaldiraq" dramasi bilan bu an'anani davom ettirishgan. Shu sabab "Momaqaldiraq"ni Kattaqo'rg'on teatrining shartli talqin to'la qo'llanilgan ilk spektakli, deb ataymiz.

Rejissyor va rassom pyesada ifodalangan ikki avlod o'rtasidagi konfliktning aslida tomiri, o'zagi bitta ekanini ko'rsatishni maqsad qilib olishgan. Buning uchun sahnada chaqmoq urishi oqibatida qoq o'rtasidan yorilgan ulkan daraxt tasvirlanadi. Bu daraxtning yarmi sarg'aygan, qurish arafasida. Uning na bargi bor, na guli. Ikkinchi yarmi esa gurkirab gullagan. Qurigan shoxlar tekis va ravon o'sgan.

¹² Qodirov M. O'zbek xalq tomosha san'ati. – T.: "O'qituvchi" nashriyoti, 1981. – B. 44-45.

Gurkiragan qismi esa buralgan g'adir-budir shoxlardan iborat, quyuq chakalakzorni eslatadi.

Daraxt – kishilik jamiyati. Ammo, bu jamiyatni kutilmagan o'zgarishlar (chaqmoq) ikki bo'lakka bo'lib tashlagan. Biri eskicha yashashga moyil odamlarni, ikkinchisi yangicha hayotni orzu qiluvchi yoshlarni ifodalaydi. Birinchi avlod sharti ketib – parti qolgan, tobora yaqinlashayotgan g'ulg'ulali zamonlar xavfini, o'zining muqarrar inqirozini allaqachon his etsada, jon-jahdi ila odatiy turmush tarzini, shu orqali kelajagini saqlab qolishga urinmoqda. Farzandlar esa doimgidek, o'zlarini haq hisoblashadi. O'zlarini to'g'ri yo'lda, deb o'ylashadi. Buning ustiga, ular juda ochko'z – birdaniga hamma narsaga erishmoqchi bo'lishadi. Hatto, ota-onalarining bor quvvatini so'rib olishdan ham toyishmaydi. Shu bois katta avlod to'g'ri va ravon o'sgan shohlardek qurib, ado bo'lmoqda, kichik avlod chakalakzor misoli gurkirab gullamoqda.

Dekoratsiyada rassom va rejissyorning nuqtai nazarlari o'z aksini topgan. Ular an'anaviy turmush tarzi doimo to'g'ri yo'lni ko'rsatib kelganini hisobga olib, keksa avlod ramzini daraxtning to'g'ri o'sgan shoxlari sifatida ifodalashgan. Kichik avlod esa o'zining tushunarsiz xarakteri, tavakkalchiligi, andishasizligi bilan chakalakzorga o'xshab ketadi. Bunday chakalakzorda adashib qolish ehtimoli katta. Sahnalashtiruvchilar tomoshabinni shundan ogoh etishmoqchi. Chunki, shartli talqinda teatr ijodkorlari spektakllardagi ma'noli imo-ishoralari orqali o'zlarining tarbiyaviy rollarini ado etishadi.

Shularni ifodalash uchun Katerina – Gulbahor Mamedova keksalar haqida gapirayotganda daraxtning qurigan yarmini nazarda tutayotganday tuyuladi. O'zlariga xos fikrlarni izhor etayotganda esa chakalakzorga mehr bilan nazar tashlaydi, hatto, undan gul uzib, chakkasiga taqadi.

“Momaqaldiroq”dan so'ng shartlilik va ssenografiya yangicha teatrning barcha spektakllarida qo'llanila boshlandi.

Dissertatsiyaning **“Mustaqillik davri va milliy qadriyatlar”** nomli uchini bobi Istiqlol davridagi ijodiy jarayonlarga bag'ishlangan. Bu jarayonlar oson kechmagan. Chunki, repertuarni Istiqlol mafkurasi asosiga qurish lozim bo'lar, bu avvalo dramaturglar zimmasiga mas'uliyat yuklardir.

Mustaqillik davrida ko'zga tashlangan ikkinchi masala – burungi mafkura tufayli millatimiz xotirasidan atayin o'chirilgan, atayin unuttirilgan buyuk ajdodlarimiz – sarkardalar, ulamolar, jadidlarning nomlarini tiklash masalasi edi.

Shunday sharaflı davrda Kattaqo'rg'on shahar drama teatrida diniy, siyosiy ajdodlarimiz hamda jadidlarga bag'ishlangan spektakllar sahna yuzini ko'rdi.

Aynan Istiqlol bergan imkoniyatlar tufayli Kattaqo'rg'on teatri jamoasi dunyoning bir qancha mamlakatlari bilan ijodiy memorandumlar imzoladi. Natijada chet ellarga gastrol safarlari uyushtirildi. Teatr nomi nufuzli festival va ko'rik-tanlovlarda e'tirof etila boshlandi.

Mazkur yutuq va kamchiliklarni ilmiy-nazariy tomonlama tadqiq etish uchinchi bobning asosini tashkil etgan.

Bobning **“Istiqlol mafkurasi va milliy qadriyatlar”**, deb nomlangan birinchi paragrafida Mustaqillik davri repertuari yoritilgan.

